

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETNING XALQARO
HAMKORLIK ALOQALARI.**

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasи assistenti
Abulqosimova Dildora Asrorovna.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand davlat Universitetida talabalarni bakalavriatura va magistratura bosqichlari, Ilmiy-tadqiqot ishlari, professor-o'qituvchilar, "Masofali ta'lism", "O'quv diagnostika", O'zbekistonning obro'-e'tibori va ta'lism sifatining salohiyati yanada oshayotgani, erishgan yutuqlari haqida.

Kalit so'zlar: "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", magistratura mutaxassisliklari, "Masofali ta'lism", "O'quv diagnostika", "Xalqaro ilmiy loyihalar tuzish", Qadimiy universitet tarixi, Ilm-fanning yuksalishi, gazetalar va erishgan yutuqlari

Samarqand davlat universiteti (SamDU) O'zbekistonning eng qadimiy va nufuzli oliy ta'lism muassasalaridan biridir. Universitet nafaqat respublikamiz, balki butun mintaqada ilm-fan va ta'lism markazi sifatida tan olingan. Bugungi globallashuv jarayonida xalqaro hamkorlik universitet rivojida muhim o'rin tutib, ta'lism sifati, ilmiy izlanishlar samaradorligi va talabalarning xalqaro tajribasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1. Xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari

SamDU dunyoning 150 dan ortiq universitetlari bilan ilmiy-ta'limiylar hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Erasmus+, DAAD, Mevlana, Fulbright kabi xalqaro dasturlar orqali talabalar va professor-o'qituvchilar chet ellarda malaka oshirib kelmoqda.

Xorijiy professorlar universitetda ma'ruzalar o'qib, qo'shma tadqiqotlarda ishtirok etmoqda.

2. Talabalar almashinushi va qo'shma ta'lism dasturlari

Talabalar Rossiya, Germaniya, Turkiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Yaponiya va AQSh kabi mamlakatlarda qisqa muddatli va uzoq muddatli ta'lif dasturlarida qatnashmoqda.

SamDUDA ayrim yo'naliishlarda qo'shma diplom dasturlari joriy etilgan bo'lib, talabalarga ikki davlat diplomi olish imkoniyati yaratilmoqda.

Chetdan kelayotgan talabalar soni ham ortib, universitet xalqaro talabalar uchun jozibador ta'lif maskaniga aylanmoqda.

3. Ilmiy tadqiqotlar va qo'shma loyihalar

SamDU olimlari xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlikda innovatsion loyihalar amalga oshirmoqda. Talabalar xalqaro konferensiya va simpoziumlarda o'z ilmiy ishlari bilan qatnashib, maqolalarini nufuzli jurnallarda chop ettirmoqda. Universitet ilmiy laboratoriyalari xalqaro grantlar asosida zamonaviy uskunalar bilan jihozlanmoqda.

4. Xalqaro grantlar va loyihalar

So'nggi yillarda SamDU jamoasi o'nlab xalqaro grantlarni qo'lga kiritib, ilmiy-amaliy faoliyatni yangi bosqichga olib chiqdi. Talabalar ham "Yoshlar innovatsion g'oyalari" xalqaro tanlovlariida muvaffaqiyat qozonmoqda.

Universitet ilmiy kengashi xalqaro loyihalarni muvofiqlashtirib, ularni ta'lif jarayoniga integratsiya qilmoqda. 1993 yildan boshlab Samarqand davlat universiteti professor – o'qituvchilari va talabalari Dushanbe universitetlarida ilmiy izlanishlar olib bordi. Bu esa ikki davlat o'rtasida ilm – fan sohasida hamkorlikning ilk qadamlari bo'ldi¹. YUNESKO bilan hamkorlikda 1995 yilda "Ipak yo'llarini yaxlit o'rganish – O'zbekiston yo'llari" O'n yillik dasturi yakuni sifatida YUNESKO ko'magida Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro institutining mintaqaviy filiali ochildi².

1996 yilda Samarqand davlat universiteti bilan Germanianing Bamberg universiteti o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik haqida shartnoma tuzildi. Bu shartnoma bo'yicha universitetda kompyuter markazi tashkil etildi, qo'lyozmalar

¹Ўз МА, М – 130 фонд, 1 – рўйхат, 157 – иш, 49 – варақ.

² National Commissions for UNESCO Commissions nationales pour l'UNESCO Headquarters of p.73

<https://scientific-jl.com/>

23-to'plan 1-son Sentyabr 2025

fondining avtomatik katalogini tuzish, talabalar va o'qituvchilar almashish hamda ilmiy ishlarda hamkorlik qilish ko'zda tutildi.

1996 yilda Samarqand davlat universiteti ilmiy kutubxonasiga BMT vakolat xonasi tomonidan 3 mingga yaqin kitob taqdim qilindi.

Samarqand davlat universitetida 2001 yilda "Molekulyar spektroskopiya" mavzusida o'tkazilgan ilmiy – amaliy konferensiyada tojikistonlik olimlar ham o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Samarqand davlat universiteti 2000 – 2002 yillarda "Tinchlik korpusi", AQSH axborot agentligi, AYREKS (Xalqaro tadqiqot o'rganish va almashuv kengashi) kabi tashkilotlar homiyligida universitetning ilmiy kutubxonasiga 100 ming AQSH dollarri hajmida turli tillardagi 20 mingdan ortiq adabiyotlarni qabul qildi.

Xulosa qiladigan bo'lsak Samarqand davlat universitetining xalqaro hamkorlik aloqalari nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Talabalar xorijiy universitetlarda bilim olib, xalqaro tajribaga ega bo'lishmoqda. Professor-o'qituvchilarning qo'shma tadqiqotlari esa ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Demak, SamDUNing xalqaro hamkorlik faoliyati nafaqat universitet obro'sini oshirmoqda, balki O'zbekistonning ta'lim va ilm-fan sohasida jahon maydonidagi mavqeini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016, 6-b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 29.08.1997 y.
3. O'zbekiston qonuni xujjatlar to'plami. № 464-I. 15- modda.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 29.08.1997 y.
5. O'zbekiston qonuni xujjatlar to'plami. № 464-I. 14-15-moddalari.
6. <https://www.Lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.